

MATBUOT-XABARI

"SHUM BOLA" XI-BOLALAR VA O'SMIRLAR UCHUN NEMIS TILIDAGI FILMLAR FESTIVALI

Dushanbe, Ayniy, Xo'jand / Tojikiston 18.-20.04.2024

Toshkent, Samarqand / O'zbekiston 22.-24.04.2024



**GOETHE
INSTITUT**

Sprache. Kultur. Deutschland.

Gyote-Instituti "Shlingel" xalqaro kinofestivali (Xemnits, Germaniya) bilan hamkorlikda 2024-yilning 18-24-aprel kunlari "Shum bola" xalqaro bolalar va o'smirlar kinofestivalini o'n birinchi marta tashkil etmoqda. Shveysariya va Avstriyaning O'zbekistondagi va Germaniyaning Dushanbedagi elchixonalari ham festivalni qo'llab-quvvatlamoda.

Tadbirlar Toshkent va Samarqandda, Tojikistonning Dushanbe, Ayniy va Xo'jand shahrlarida bo'lib o'tadi. "Shlingel" xalqaro kinofestivali dasturidan nemis tilidagi dolzarb bolalar va yoshlar filmlari namoyish etiladi. Mashhur xalqaro festivalda har yili Germaniya bolalar va o'smirlar kinosanoatining so'nggi xalqaro filmlari namoyish etiladi.

"Shum bola 2024" film dasturi nemis tilidagi joriy bolalar va o'smirlar filmlarining rang-barang tanlovini taklif etadi, jumladan "Yovvoyi yurak - yovvoyi va erkin pony" va "Ferris g'ildiragi ostidagi arvohtar". O'tgan yilgi kinofestivalda namoyish etilgan Avstriya va Germaniyaning "Frans haqida yangi hikoyalar" filmining davomi ham namoyish etiladi. Shuningdek, barcha tashrif buyuruvchilar filmlarni o'z tillarida tomosha qilishlari uchun filmlar o'zbek, rus yoki tojik tillariga dublyaj qilingan.

Bundan tashqari, yosh mehmonlar, ota-onalar va qiziquvchilar film mavzusi bo'yicha turli xil ko'ngilochar dasturni kutishlari mumkin. Shlingel xalqaro kinofestivalining kuratori Mixael Xarbauer festivalga Germaniyadan kelgan mehmonlar va Gyote-Instituti xodimlaridan iborat jami to'qqiz kishi bilan O'zbekiston va Tojikistonda hamrohlik qiladi.

Filmlar asl tilda rus tilidagi subtitrlar bilan va/yoki o'zbek, rus va tojik tillarida dublyaj qilingan holda namoyish etiladi.

Film namoyishlari bepul. O'zbekistonda bepul chiptalarni +998 97 455 17 68 telefon raqami orqali buyurtma berib Gyote-Institutidan olish mumkin.

Joylar soni cheklangan.

Tadbir to'g'risida batafsil ma'lumot Quyidagi havolalar orqali:

www.goethe.de/taschkent

www.facebook.com/goetheinstitut.tashkent

<https://t.me/goetheinstituttaschkent>

https://www.instagram.com/goetheinstitut_uzbekistan/



**Österreichische
Botschaft
für Usbekistan**

**Schweizerische Eidgenossenschaft
Confédération suisse
Confederazione Svizzera
Confederaziun svizra**

Embassy of Switzerland in Uzbekistan

Matbuot uchun aloqa:

Gulnoza Bazarova,
Jamoatchilik bilan
ishlash xodimi

Goethe-Institut Taschkent
Amir Temur ko'chasi 42,
100000 Taschkent
Tel.:(+99878)1401494
:(+99878)1401470